

## Dolzarb mavzudagi suxbat

Bugun TIQXMMI "B"binosi ma'ruzalar zalida SXTEB fakulteti talaba qizlari bilan "Xotin-qizlarga nisbatan taziyq va zo'ravonlikni, zo'ravonlikka nisbatan ularning munosabatlarini aniqlash" mavzusida institut psixologiy bilan birgalikda suhbat va treninglar o'tkazildi. Tadbirda ayol zoti tabiatning nozik xilqati, deb ta'rif berilishi bejiz emasligi, xotin-qizlar e'tibor va himoyaga doim ehtiyoj sezishi haqida suhbat qurildi. Ammo hayot doim bir tekisda davom etmasligi, ayrim hollarda xotin-qizlar turli shafqatsizliklarga ham duch kelishi, bunday hollarda ularning huquqlari umumiyligi huquqiy mezonlarga muvofiq himoya qilish uchun qonunlar joriy etilgani bejiz emasligi haqida suhbatlashildi. Yurtimizda xotin-qizlarni himoyalash mexanizmini kuchaytirish maqsadida yangi "Xotin-qizlarning tazyiqlari va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingani aytib o'tildi. Shu yil 3-sentyabrdan kuchga kirgan mazkur qonun davlatimiz rahbarining 2019-yil 7-martdagagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgani yana bir bor ta'kidlandi. Tadbir davomida talaba qizlarga qonunning maqsadi xotin-qizlarni turmushda, ish joylarida, ta'limga muassasalarida hamda boshqa joylarda tazyiqlar va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgani aytib o'tildi. Suhbat trening dasturi bilan davom etdi. Treningda "Beshafqatlik va tajovuzkorlik – badjahl aql va qo'rkoq yurakning mahsuli" ekanligi aytib o'tilib "Oynadagi aksimiz" o'yini bilan davom ettirildi. Va o'yin so'ngida ishtirokchilar qalbida qanday kechinmalar o'tkazganliklari muhokama qilindi. Trening davomida zo'ravonlik turlari haqida ma'lumot berildi va ishtirokchilar hayotida sodir bo'lgan vaziyatlardan tanlab olinib muhokama qilindi. Tadbir ibratli hikoya bilan yakunlandi.



TIQXMMI matbuot xizmati